

## **Maktabgacha ta'lim bolalarida ijobiy odatlar tarbiyalash mazmuni**

**Содержание воспитания положительных привычек у дошкольников**

**The content of the education of positive habits in preschoolers**

**Borliboyeva Sohiba Jo'raboyevna Zafarobod**

**tuman TST va MXTE bo'limi metodisti**

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada maktabgacha ta'lim bolalarida ijobiy odatlar tarbiyalash va kasb va mehnat odatlari mazmuni haqida ma'lumot berilgan.

**Аннотация:** В данной статье представлена информация о воспитании положительных привычек у дошкольников и содержании профессионально-трудовых привычек.

**Annotation:** This article provides information about the education of positive habits in preschoolers and the content of professional and labor habits.

**Tayanch so'zlar:** Maktabgacha ta'lim, bolalar, ijobiy odatlar, tarbiyalash, kasb, mehnat odatlari, mazmun.

**Ключевые слова:** дошкольное образование, дети, положительные привычки, воспитание, профессия, трудовые привычки, содержание.

**Key words:** preschool education, children, positive habits, upbringing, profession, work habits, content.

Odatlar kishi ish-harakatlarining barqaror usullari bo'lib, muayyan sharoitda bularni bajarish ehtiyojga aylanadi. Mehnat va o'qish jarayonida ko'nikma hamda malakalar bilan birga odatlar ham katta o'rin egallaydi. Odatlar, xuddi malakalar singari, yangidan hosil qilingan, mustahkamlangan va avtomatlashtirilgan ish-harakatlardir; lekin malaka va odat-aynan bir narsa emas, ular bir-biridai farq qilinadi. Ma'lum sharoit ta'siri ostida vujudga kelib va mustahkamlanib qolgan va bajarilib turishi kishining ehtiyojiga aylangan amal harakatlarni odat deb aytiladi.

Bunday harakatlarni (odatlarni) to'xtatib qolish, odatda, tajanglik va norozilik hissini uyg'otadi. Masalan, bunga quyidagi odatlarni ko'rsatish mumkin: masalan

bir vaqtda uyqudan turish, ovqat oldidan qo'lni yuvish, ishda asboblarni ma'lum bir joyga qo'yish va shuniing kabilari. Odatlanib qolgan harakatlar ko'pincha shunchalik mustahkam singib ketadiki, ular kishiga tabiiy bo'lib ko'rinadi. «Odat kishining ikkinchi tabiatidir» («o'rgangan ko'ngil o'rtansa qo'yimas») degan maqol ham mana shundan kelib chiqqan<sup>1</sup> .

Odatlar ham, malakalar singari, har xil bo'ladi; masalan, shunday odatlar bo'ladi: kasb va mehnat odatlari (ishga o'z vaqtida kelish, boshlangan ishni oxirigacha yetkazish, har qanday ishni oldindan o'ylab, reja bilan ishlash, ish uchun zarur bo'lgan barcha narsalarni ma'lum bir joyga qo'yish va boshqalar), gigiyena odatlari (badan va kiyimlarning tozaligini saqlash, tishni tozalab turish, ovqat oldidan qo'llarni yuvish va boshqalar), estetik odatlar (sochlarni yaxshilab tarab, kiyimlarni ozoda qilib yurish, uyni tartibli va chiroyli qilib tutish, nutq madaniyatiga rioya qilish va boshqalar), axloqiy odatlar (rostgo'y, sofdil va halol bo'lish).

Faqat ijobiy odatlar bo'lib qolmay, balki salbiy odatlar ham bo'lishi mumkin. Salbiy odatlarga misol qilib ishdagi yuzakilik va tartibsizlikni, irkitlikni, qo'pol iboralar, ya'ni, masalan, xo'sh kabi keraksiz so'zlarning ishlatilishi, tirnoqlarni kemirish odatini, shuning kabilarni ko'rsatish mumkim.

Odatlarni hosil qilish jarayoni, xuddi malakalarni hosil qilish jarayoni siigari, ya'ni bir xildagi harakatlarni asosan ko'p martalab takrorlay berish orqali sodir bo'ladi. Odat va malakalar hosil bo'lish qonuniyatlari birdir. Odatlarning nerv-fiziologik asosi ko'nikma va malakalarning nerv-fiziologik asoslari bilan birdir,

Ko'nikilgan (odatlanib qolingan) harakat malakadan farq qilib shu ish-harakatni amalga oshirish ehtiyoji tufayli paydo bo'ladi; agar kishi shu ish-harakatni amalga oshirmas ekan, unda norozilik hissi tug'iladi, o'zini noqulay sezadi.

---

<sup>1</sup> Karimova V. Ijtimoiy psixologiya. T., Tarbiyachichi, 1994.

Masalan, bolada ma'lum bir vaqtda uxlashga yotish odati hosil bo'lgan, bu qoidani bajarmaslik bolaning injiqlanishiga, yig'lashiga, kayfiyatining yomonlashishiga sabab bo'ladi.

Odatlar oddiy takrorlash natijasida tarkib topadi va tarkib topgandan so'ng takomillashmaydi, malakalar esa hamisha mashqlar natijasida tarkib topadi.

Odat ixtiyorsiz yuzaga kelishi mumkin, malaka esa hamma vaqt oldindan qo'yilgan matssadga muvofiq tarkib topadi. Ammo ma'lum bir odatga aga bo'lishnn maqsad qilib ko'yilsa, odatdya ixtiyoriy ravishda ham hosil qilish mumkin. Kishi noxush odatlardan ixtiyoriy ravishda qutulishi mumkin.

Malaka va odatlarnng nerv-fiziologik asosida akademik I.P.Pavlov tomonidan ochilgan shartli reflekslarning hosil bo'lishi mexanizmi yotadi. Lekin malaka va odatlarning nerv-fiziologik mexanizmini tashkil etgan shartli reflekslar oddiy shartli reflekslar bo'lmay, balki dinamik stereotip tarzidagi, ya'ni takrorlay berish iatijasnda juda ham mustahkamlanib ketgan shartli reflekslar birikmasidan iboratdir. Akademik I.P.Pavlov malaka va odatlarning iyerv-fiziologik mexanizmlari haqida shunday deb yozgan edi: «Bizdagi tarbiya, ta'lim, intizomning barcha turlari, har qanday odatlar qator-qator tuzilgan juda ko'p shartli reflekslardan iborat bo'lsa kerak. Muayyan sharoit, ya'ni muayyan qo'zg'atuvchilar bilan harakatlarimiz o'rtasida hosil bo'lgan va mustahkamlangan bog'lanishlar ko'pincha, hattoki, ataylab qarshilik qilishimizga qaramay, doimo o'z-o'zidan takrorlana berishini kim bilmaydi? Bu narsa muayyai bir harakatlarni bajarishga va, shuning bilan birga, harakatlarni to'xtata bilishga, ya'ni ham musbat, ham manfiy reflekslarga baravar taalluqlidir. Shuningdek, ba'zan o'yin paytida yoki turli san'at mashg'ulotlarida ishda uchraydigan ortiqcha harakatlarni yo'qotish uchun lozim bo'lgai tormozlanishni tug'dirish oson emasligi ma'lumdir».

Malaka va odatlarning nerv-fiziologik asoslarini tushuntirishda akademik I. P. Pavlovning dinamik stereotip haqidagi ta'limoti juda katta ahamiyatga egadir.

Masalan, har bir odam o'zining yashash sharoitiga, ya'ni o'zining kundalik hayot tarixiga o'rganib, odatlanib qolgan bo'ladi. Buning sababi shundaki, odatda ayni shu hayot tarixiga nisbatan dinamik stereotip vujudga kelgan bo'ladi. Agar, bordini, hayot sharoitini to'satdan keskin o'zgartirsak, dinamik stereotip buziladi va yangi sharoitga nisbatan yangi dinamik stereotip yuzaga kelguncha ancha vaqt o'tadi. Chunonchi, yangi maktabgacha ta'limga kelgan bola o'zining odatlanib qolgan uy sharoitidan bog'cha sharoitiga o'rganib ketguncha, ya'ni yangi sharoitga nisbatan yangi dinamik stereotip hosil bo'lguncha, tarxashlik qilib, janjal bilan bog'chaga keladigan bo'ladi. Odamda malakalar birinchi va ikkinchi signallar sistemasi doirasida hosil bo'ladigan muvaqqat bog'lanishlar asosida yuzaga keladi. Odamda har turli malakalarning hosil bo'lishida so'z orqali tushuntirishning roli g'oyat kattadir. Hosil bo'lgan malakalar so'z yordamida mustahkamlanib va takomillashib boradi. Odatlarni bir necha guruhlarga bo'lish mumkin.

. Mehnat odatlari - mehnatga odatlanib qolingani munosabat, mehnat qilish usuli, ishni rejalashtirish va uni oxirigacha yetkazish odati,

Gigiyena odatlari - ovqat oldidan qo'llarni yuvish, yuvinish, tishni tozalash va ozoda bo'lish.

Madaniy xulq odatlari - kishilarga xushmuomala bo'lish, katta yoshli odamlarga iltifot qilish, transportda keksalarga joy berish

Aqliy odatlar - tafakkurning odatlanib qolgan usullari, nasalalarni yechishga doir ko'nikilgan usullar va munosabat

Axloqiy odatlar - rostgo'y, halol bo'lish, ma'lum sharoitda tegishli ravishda o'zini tuta bilish,

1. Mehnat odatlari - mehnatga odatlanib qolingan munosabat, mehnat qilish usuli, ishni rejalashtirish va uni oxirigacha yetkazish odati, mustaqil harakat qilish, o'z mehnatiga va boshqalarning mehnatiga munosabat.

2. Gigiyena odatlari - ovqat oldidan qo'llarni yuvish, yuvinish, tishni tozalash va ozoda bo'lish.

3. Madaniy xulq odatlari - kishilarga xushmuomala bo'lish, katta yoshli odamlarga iltifot qilish, transportda keksalarga joy berish, to'g'ri va muloyim gapirish va shu kabilar.

4. Axloqiy odatlar - rostgo'y, halol bo'lish, ma'lum sharoitda tegishli ravishda o'zini tuta bilish, prinsipli bo'lish odatlari va shu singari ko'pgina odatlar.

5. Aqliy odatlar - tafakkurning odatlanib qolgan usullari, nasalalarni yechishga doir ko'nikilgan usullar va munosabat, mu-hokamalarning odatlanib qolgan usullari.

Maktabgacha ta'lim bolalarida aqliy odatlar, ya'ni muhokama qilish, solishtirish, umumlashtirish odatlari faoliyatida namoyon bo'ladi.

Bola maktabgacha ta'lim ostonasiga qadam qo'yishi bilan yangi hayot sohasiga, yangi muhit sharoitiga kirib keladi. Bu davrdan boshlab bola faoliyatining mazmuni ham, tevarak-atrofdagi narsa va hodisalarga bo'lgan munosabati ham muayyan darajada o'zgaradi. Endi u bolalar degan sharaflil bilimga ega, uning muayyan vazifalari va bolalik burchi bor. Bolalar o'z oldida turgan vazifalarini o'z vaqtida bajarishi, mashg'ulot materiallarini o'qib o'zlashtirishi kerak. Bunday vazifalarni bajarish bolaning shaxsiy ishigina bo'lmay, balki uning davlat ahamiyatiga ega bo'lgan muhim ijtimoiy burchi hamdir. Bizda partiya, davlat, jamoatchilik va ota-onalar ham bu haqda g'amxo'rlik qiladilar. Bu to'g'rida ko'p gapiradilar. Bola bularni tushunadi. Endilikda uning ota-onasi va boshqa oila a'zolari uning qanday o'qiyotgani, topshiriqlarni qanday bajarayotgani va mashg'ulotlardan qanday bahoga javob berayotgani bilan qiziqadilar va bu haqda

o'zaro mulohaza yuritadilar, o'z fikrlarini aytadilar hamda lozim bo'lganda yaxshi sharoit yaratib berish to'g'risida g'amxo'rlik qiladalar.

Bola ham o'z hayotida yangi davr boshlanganligini anglaydi, o'qish mas'uliyati uning xatti-harakatlariga, yurish-turishiga, xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshidagi bola muayyan qoidalarga amal qilishi, mashg'ulotlariga kechikmay, o'z vaqtida yetib kelishi, mashg'ulot da tarbiyachining tushuntirayotgan narsalarini tinglab, o'qib olishi, topshiriqlarni o'z vaqtida bajarishi lozim. Shu bilan birga, mashg'ulotda o'zini qanday tutish, gigiyena va tozalikka rioya qiliig, tarbiyachi va kattalar tomonidai berilgan buyruq hamda ko'rsatmalarni so'zsiz bajarish, jamoat orasida o'zini qanday tutish lozimligini ham bilib olishi kerak. Yashash sharoitidagi bunday o'zgarishlar bola psixikasining o'sishiga, xulq-atvoriga va umuman, shaxsining tarkib topishiga kuchli ta'sir ko'rsatadi. Maktabgacha yoshdagi bolalarning xatti-harakatidan ma'lum darajada mas'uliyat sezilib tursada, uning tabiatiga xos bo'lgan serharakatlilik, o'yinqaroqlik va taqlidchanlik singari xususiyatlar hali batamom yo'qolib ketmaydi.

Umuman olganda inson tug'ilishdan boshlab jismoniy jihatdan o'sib boradi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy odatlar tarbiyalash va bu o'sish har qaysi yosh davrida turlicha bo'ladi. Maktabgacha yoshdagi bolalarda ijobiy odatlarni tarbiyalash jismoniy jihatdan o'sishida ham o'ziga xos xususiyat bor. Shuning uchup ham maktabgacha yoshdagi bolalarlari har bir yosh davrida ijobiy odatlar tarbiyalash bolalarning jismoniy jihatdan o'sishiga xos bo'lgan eng asosiy va muhim xususiyatlarni bilishlari hamda ta'lim-tarbiya jarayonida shularni hisobga olib ish ko'rishlari lozim.

### **Adabiyotlar ro'yxati**

Kushakova, G. (2021). Oilada bolalarga oila byudjetini sarflash qoidalarini o'rgatishning o'ziga xos xususiyatlari. *Мaktabgacha таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://presedu.jspi.uz/index.php/presedu/article/view/2791>  
Kushakova, G. (2021). BOLALARNI MEHNATSEVARLIK RUHIDA

TARBIYALASHDA OILANING O'RNI VA AHAMIYATI .*Мактабгача таълим журнали*, 1(1). Retrieved from <https://preedu.jspi.uz/index.php/preedu/article/view/3057>

Kushakova, G. (2021). 6-7 BOLALARNI OILADA MAKTABGA TAYYORLASH JARAYONINI TAKOMILLASHTIRISHNING METODIK AHAMIYATI. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://preedu.jspi.uz/index.php/preedu/article/view/3938>

Kushakova, G. (2021). MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTLARIDA PEDAGOGIK ISHLARNI TASHKIL ETISH .*Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://preedu.jspi.uz/index.php/preedu/article/view/3509>

Kushakova, G. (2021). OILAVIY QADRIYATLARNING FARZAND TARBIYASIDAGI ŐRNI. *Мактабгача таълим журнали*, 3(Preschool education journal). Retrieved from <https://preedu.jspi.uz/index.php/preedu/article/view/3491>

KG Egamkulovna [Pedagogical conditions for the formation of tolerant thinking in youth in the family environment](#)

- Asian Journal of Multidimensional Research (AJMR), 2021

G Kushakova [THE CONCEPT OF TOLERANCE AS ONE OF THE ESSENTIAL REQUIREMENTS OF HUMAN PERFECTION](#)

- European Journal of Research and Reflection in ..., 2019